

SPORT HUQUQIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rustamov Xoziakbar Raufjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15490987>

Annotatsiya. Shartnomaviy munosabatlar keng tarmoqli tushuncha bo'lib, ijtimoiy munosabatlar, subyektiv, obyektiv jihatlarga qarab turli xil ko'rinishlarda tahlil qilinishi mumkin. Shu bilan birga yuqoridagilarni inobatga olib normativ jihatdan tartibga solinishi mumkin. Sport sohasida shartnomaviy munosabatlarning o'ziga xos jihatlari, shu bilan birga ularning turlar, holati hamda boshqa bir qancha holatlarini tahlil qilish bilan bir sport sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning boshqa munosabatlardan farqli jihatlarini keltirish mumkin.

Kalit so'zlar: sport shartnomalari, professional sportchi, sportchi, bukmekerlik shartnomalari, kreditor, qarzdor, murabiy, FIFA tashkiloti, transfer huquqi.

SPECIFIC FEATURES OF CONTRACTUAL RELATIONS IN SPORTS LAW

Abstract. Contractual relations are a broad concept and can be analyzed in various forms depending on social relations, subjective and objective aspects. At the same time, they can be regulated normatively, taking into account the above. By analyzing the specific aspects of contractual relations in the field of sports, as well as their types, status and a number of other circumstances, it is possible to bring out the different aspects of contractual relations in one sports field from other relations.

Keywords: sports contracts, professional athlete, athlete, bookmaker contracts, creditor, debtor, coach, FIFA organization, transfer right.

ОСОБЕННОСТИ ДОГОВОРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СПОРТИВНОМ ПРАВЕ

Аннотация. Договорные отношения представляют собой широкое понятие и могут анализироваться по-разному в зависимости от социальных отношений, субъективных и объективных аспектов. В то же время его можно регулировать нормативно, принимая во внимание вышеизложенное. Анализируя специфику договорных отношений в сфере спорта, а также их виды, статус и ряд других обстоятельств, можно выделять аспекты договорных отношений в одной сфере спорта, которые отличаются от других отношений.

Ключевые слова: спортивные контракты, профессиональный спортсмен, легкоатлет, букмекерские контракты, кредитор, должник, тренер, организация ФИФА, права передачи.

Ma'lumki, sport nafaqat jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish quroli sifatida bilinadi, shu bilan birga odamlarning muayyan qoidalar bo'yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo'lgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko'rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar sifatida ham tushuniladi.¹

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'RQ-394-son

Fuqarolik huquqiy munosabatlarida sport shartnomalari o'ziga xos jihatlar bilan alohida o'rin egallaydi. Chunki shartnomaviy munosabatlar fuqarolik munosabatlarining tarkibi hisoblanadi, shunday ekan sport faoliyati ya'ni sportdagi shartnomaviy munosabatlar fuqarolik huquqi, hamda shu doiradagi normativlar hamda tartiblar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, sport huquqida yagona maxsus normalar yig'indisi mavjud emas, aksincha, inson faoliyatining boshqa ko'plab sohalarida bo'lgani kabi, turli sohalardagi qonunning ko'plab tarmoqlari singari ma'lum holatdan kelib chiqib ishlatalishi mumkin. Misoli o'rnida, *ma'muriy va ommaviy huquq* tamoyillari, *xalqaro xususiy huquqqa* nisbatan ishlab chiqilgan maxsus qoidalar, savdoni cheklash to'g'risidagi umumiy huquq doktrinasi, jinoiy huquq va qonunlar, masalan, 1974 yildagi Savdo amaliyotlari to'g'risidagi qonun va 2001 yildagi Korporatsiyalar *to'g'risidagi qonun* kabilarni keltirishimiz mumkin. Biroq, hech qanday shubha yo'qliki, shartnoma qonuni sport huquqining poydevorini yaratadi, shartnomaviy munosabatlar sport va qonun o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lgan ko'pgina sohalarda birinchi darajali ahamiyatga ega hisoblanadi.²

Shartnoma - fuqarolik munosabatlarida ikki yoki bir necha subyektlar tomonidan huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish, yoki bekor qilishga asos bo'lib xizmat qiluvchi taraflarning o'zro xohish irodasini ifodalovchi kelishuvga nisbatan tushunilishi mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarda fuqarolik subyektlari tomonidan ma'lum bir ko'zlangan maqsad asoslangan taraflar kelishuvi yani bitimning bir turiga nisbatan shartnoma atamasi ishlatalidi. Bundan kelib chiqadiki sport shartnomasi ham fuqarolik munosabatlarining bir qismi hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, agarda chet el elementi aralashuvi bilan munosabatlarning murakkablashuvi yuzaga kelgan taqdirda xalqaro xususiy huquq elementlari bilan o'zaro bog'liqlik yuzaga keladi hamda bunday shartnoma xalqaro shartnoma sifatida ko'rildi. Taraflar o'rtasida shartnomaviy munosabat vujudga kelishi bilan bir vaqtida ular o'zlar uchun ma'lum bir huquq hamda majburiyatlarga ham ega bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, taraflar o'rtasidagi ularning xohish irodasini ifodalovchi kelishuv natijasi shartnoma natijasida taraflar ma'lum bilan majburiyatlarni bajarishni o'z zimmalariga oladi

Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari Fuqarolik kodeksining 234-moddasida yoritib o'tilgan bo'lib unga ko'ra: majburiyatfuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, *ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish*, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.³

Fuqarolik munosabatining bir qismi bo'lgan mehnat munosabatlari sport shartnomalariga ham o'zining sezilarli darajada ta'sirini o'tkazadi. Chunki, sport shartnomalari taraflar o'rtasida mehnat munosabatlari shaklida ham tuzilishi mumkin. Ma'lumot o'rnida milliy qonunchiligidizga binoan, sport faoliyati to'g'risidagi har qanday: mehnat, fuqarolik yoki aralash shartnoma O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi asosida sportchi, professional sportchi (murabbiy, mutaxassis) hamda jismoniy tarbiya va sport tashkilotining

² Avstraliya va Yangi Zelandiya sport huquqi jurnali 2010 5(1).

³ <https://lex.uz/docs/-111189#-155618>

rahbari o‘rtasida yozma ravishda tuzilgan shartnomalar hisoblanadi.⁴ Bundan kelib chiqadiki, sport sohasida yuzaga keladigan subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar fuqaroviylar, mehnat hamda aralash shartnomalar ko‘rinishida yuzaga kelishi mumkin. Sport shartnomalari xoh u fuqaroviylar munosabatlar, xoh mehnat yoki aralash huquq munosabatlaridan bo‘lishiga qaramasdan sport tashkilotlari va sportchilar o‘rtasidagi munosabatni kelib chiqishiga bog‘liq ravishda kichik o‘zgarishlar bilan taraflar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlari orqali taraflarga ma’lum majburiyat va huquqlarni o‘zaro tartibga soluvchi muhim hujjat hisoblanadi.

Sport shartnomalari bilan bog‘liq munosabatlar har doim ham moliyaviy jihatdan yaxshi ta’milanmaydi. Buning oqibatida ko‘pincha sport turlari bo‘yicha tegishli shartnomalar rejimlari hech qanday rasmiy huquqiy malakaga ega bo‘lmagan, yuridik bilimga ega bo‘lmagan oddiy odamlar tomonidan ishlab chiqiladi yoki tayyorlanadi. Lekin ta’kidlash kerakki, sport doirasi subyektlarinigina sport shartnomalari bilan bog‘liq munosabatlarga kirishadigan subyektlar kelishuvlarni qo‘pol xatoliklar bilan yoki qisqacha shaklda qayd etadigan taraflar deb ko‘rsatish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Yani, ba’zida biznesda ham shunday holatni ko‘rshimiz mumkin. Shuni ham takidlash kerakki, shartnomaviy munosabatlar hamda ular ostida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizoli holatlar tegishli tartibda sudlar ko‘rib chiqilishi hamda taraflargaadolatli, moslashtirilgan yechim berish imkonini yaratishi mumkinligi e’tiborga molikdir. Sport shartnomalari bilan bog‘liq munosabatlar natijasida nizoli vaziyatlar shartnomaviy munosabatlarning boshqa sohalariga qaraganda farqli ravishda yuqori hisoblanadi.

Bunga sabab sifatida munosabatga kirishayotgan subyektlar munosabatining holati ham muhim hisoblanadi. Sport shartnomalari subyektiv jihatdan turlarga bo‘linishi mumkin. Lekin sport shartnomalarining asosiy negizi, avvalo, sportchi va professional sportchi, murabbiy va professional murabbiy, ikkinchi taraf, jamoa, klub, yoki sarmoyador bilan shartnomaviy munosabatga kirishishi natijasida yuzaga keladi.

Professional sportchi—sport musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rish va ularda qatnashish uchun shartnomaga muvofiq ish haqi va boshqa pul mukofotlarini oladigan, faoliyatining asosiy turi bo‘lgan sportchi O‘zbekiston, shuningdek, xalqaro va respublika jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining ustavlari asosida ishlab chiqiladigan va tegishli sport turlari bo‘yicha respublika federatsiyalari bilan kelishilgan holda professional jismoniy tarbiya va sport birlashmalari tomonidan tasdiqlangan standartlar asosida faoliyat yurituvchi subyektdir.⁵

Professional sportchi hamda murabbiylar ko‘pincha jamoa bilan mehnat shartnomasi asosida kelishuvga erishadilar. Chunki mehnat munosabatlarida huquq va majburiyatlar keng tartibga solingan bo‘lib, sportchi hamda murabbiy majburiyatdan ko‘ra ko‘proq huquqlarga ega bo‘lishiga ishonishadi. Chunki shartnomaviy munosabatlarda taraflar ma’lum bir vazifani bajarishni, buning evaziga haq olishni maqsad qilishi mumkin, mehnat shartnomalarida bu biroz boshqacha tartibga solinganligini ko‘rshimiz mumkin, ya’ni bunda muddat aniq ko‘rsatiligan bo‘ladi, taraflar majburiyatlarni zimmalariga oladi va e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatni shundan iboratki, agar ko‘zlangan maqsadga erishilinmasa kompensatsiya yoki boshqa qo‘sishmcha choralar ko‘rilmaydi. Shu jihat sportchilar, murabbiylarni jamoa bilan shartnomalar tuzishda mehnat shartnomalariga ko‘pincha yuz kelishiga olib keladi.

⁴ 1 Мусаев Э.Т. Правовое регулирование спортивных отношений. Монография. –Ташкент: ТГЮУ, 2020. 21 с

⁵ Sport shartnomalar huquqi:darslik. Musayev E.T.-T.:TDYU 2024.

Sportchi va professional sportchi o'rtasidagi huquqiy farqlar shartnomaviy huquq va majburiyatlar huquqi doirasida bir qancha farqli holatlarga ega hisoblanadi. Sport huquqi shartnomaviy munosabatlarga bog'liq bo'lgan fuqarolik huquqi doirasida muhim nazariy va amaliy masala hisoblanadi.

Oddiy sportchi. shartnoma asosida emas, balki ko'pincha federatsiya yoki maktab doirasidagi qoidalarga amal qiladi. Asosiy majburiyatlar: mashg'ulotlarda ishtirok etish, musobaqalarda qatnashish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqlar masalasiga keladigan bo'lsak, sportchi sport inshootlaridan foydalanish, murabbiylik xizmatidan foydalanish kabi umumiy ko'rinishdagi huquqlardan foydalanish ko'lamenti keltirishimiz mumkin bo'ladi.

Professional sportchi. Professional sportchining faoliyati ijtimoiy hamda iqtisodiy taraflama, shu bilan birga shertnomaviy munosabatlarda keng tartibga solingan bo'lib bunda sportchiga erkinlik berilganini k o'rshimiz mumkin. Yani Professional sportchi oddiy sportchiga qaraganda shartnomaviy munosabatlarga nisbatan erkin harakat asosida faoliyat olib boradi.

Masalan, futbolda shartnomaviy munosabatlar FIFA tomonidan tan olingan professional shartnoma bo'lishi mumkin. Yani shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar: Sport klubida belgilangan muddat va asoslarda mashg'ulot olib borish, tijorat faoliyatida qatnashish (reklama, media chiqishlar), boshqa klublar bilan shartnoma tuzmaslik (eksklyuzivlik), tibbiy ko'rikdan o'tish, klub manfaatlariga zarar yetkazmaslikni keltirishimiz mumkin. Oddiy sportchi (havaskor) jamoaviy, mamlakat nomidan harakat qilganligi sababli umumiy kelishuv asosida faoliyat yuritishi e'tiborga molik hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Fuqarolik munosabatlar, mehnat munosabatlari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar doim dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga shartnomaviy munosabatlarda ayniqsa voyaga yetmaganlarning shartnomaviy layoqati, sport shartnomalarida alohida ahamiyat hamda o'rghanishni, tahlil qilishni talab qiladi. Shundan kelib chiqib yuqorida o'rghanishlar asosida, shartnomaviy hamda mehnat shartnomasiga doir munosabatlarda sport sohaiga doir munosabatlar doirasida tuzilishi O'zbekiston qonunchiligidagi yetarlicha tartibga solinmagan. Bularga misol tariqasida, bukmekkerlik faoliyati tobora ijtimoiy munosabatlarga keng yoyilayotgani va bu faoliyatning asosiy istemolchilari, ikkinchi taraf voyaga yetmaganlarning bo'lishi, shu bilan birga jamoa hamda sportchi, professional sportchi o'rtasidagi munosabatlar to'liq tahlil qilinmaganligi aniq normativlarni yetishmovchiligi borligini ko'rshimiz mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'RQ-394-soni
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. Avstraliya va Yangi Zelandiya sport huquqi jurnali 2010 5(1).
4. Мусаев Э.Т. Правовое регулирование спортивных отношений. Монография. – Ташкент: ТГЮУ, 2020. 21 с
5. Sport shartnomalar huquqi:darslik. Musayev E.T.-T.:TDYU 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.04.2024 yildagi PF-68-soni